ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

«BUXORO SHAHRIDA TARIXIY ME'MORIY MEROSNI ASRASH VA ZAMONAVIY QURILISH O'RTASIDAGI MUVOZANAT MUAMMOLARI»

Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li
Buxoro davlat texnika universiteti "Arxitektura" kafedrasi doktoranti
Murodova Malika Olimovna
Buxoro davlat texnika universiteti1-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada Buxoro shahrida tarixiy me'moriy merosni saqlash va zamonaviy qurilish jarayonlari o'rtasida yuzaga kelayotgan ziddiyatlar tahlil qilinadi. Urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi, yangi inshootlarning ko'plab qurilishi va infratuzilma rivoji tarixiy muhitga ta'siri bilan birga o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, me'moriy merosni muhofaza qilishda monitoring, normativ tartib, mutanosib rejalashtirishning kuchaytirilishi zarurligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Buxoro, meros, tarixiy me'morchilik, muvozanat, modernizatsiya, rekonstruksiya, shaharsozlik, urbanizatsiya, muhofaza, madaniy muhit.

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы сохранения историко-архитектурного наследия в Бухаре и возникающий дисбаланс между реставрацией, современным строительством и процессами урбанизации. Проведен анализ влияния новых строительных объектов на историческую городскую среду. Сформулированы рекомендации по обеспечению баланса между развитием города и сохранением культурного наследия.

Ключевые слова: Бухара, наследие, историческая архитектура, баланс, модернизация, реконструкция, городское планирование, урбанизация, защита, культурная среда

Abstract. This article examines the challenges of preserving architectural heritage in Bukhara amid rapid modern construction and urban development. The study analyzes the impact of new buildings on historical urban fabric and identifies conflicts between conservation requirements and contemporary infrastructure needs. The findings emphasize the importance of regulatory control, balanced planning, and heritage-sensitive development strategies.

Keywords: Bukhara, nasledie, historical architecture, balance, modernization, reconstruction, urban planning, urbanization, zashchita, cultural environment

KIRISH.

Buxoro shahri dunyo miqyosida noyob tarixiy merosi, ming yillik me'moriy maktabi va o'ziga xos shahar muhiti bilan mashhur. Shaharning markaziy qismi O'zbekistonning eng qadimgi madaniy qatlamlaridan biriga ega bo'lib, tarixiy obidalar, qadimiy ko'chalar, mahalla tuzilishi, hovli arxitekturasi bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Buxoro 1993 yilda UNESCOning Jahon merosi

ISSN 3030-3907

ro‘yxatiga kiritilgani ham ushbu shahar tarixiy muhitining butun insoniyat uchun ahamiyatini tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda iqtisodiy rivojlanish, turizmning kengayishi, yangi infratuzilma ehtiyojlarining ortishi shahar hududida jadal qurilish jarayonlarini keltirib chiqardi. Natijada tarixiy hududlar yaqinida zamonaviy mehmonxonalar, savdo majmualari, ko‘p qavatli turar joylar va kommunikatsiya tizimlari barpo etila boshladi. Bu esa tabiiy ravishda tarixiy me’moriy merosni asrash bilan zamonaviy qurilish o‘rtasida keskin muvozanat muammolarini yuzaga keltirmoqda.*(1-rasm)*



1-rasm “Buhhara citi” memoriy majmuasining loyihasi

ASOSOY QISM. Ayniqsa eski shahar qismi, mahalla hududlari, tarixiy guzarlar va qadimiy obidalar atrofida urbanizatsiya jarayoni bosim ostida qoldi. Tarixiy ko‘chalar o‘rniga keng yo‘llar ochilishi, afsonaviy me’moriy kompozitsiyani buzuvchi bino balandliklari, hududlarning funksional o‘zgarishi, madaniy landshaftning yo‘qolib borishi — bularning barchasi jiddiy ilmiy tahlilni talab qilmoqda. Mazkur maqola ushbu ziddiyatli jarayonlarni chuqur o‘rganish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot Buxoro tarixiy markazida kechayotgan urbanistik jarayonlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy yondashuvlarning bir necha turi kompleks qo‘llanildi. Avvalo, arxitektura-shaharsozlik tahlili asosida tarixiy hududning fazoviy-kompozitsion tuzilishi, ko‘cha tizimining shakllanishi, kvartal strukturalari va tarixiy siluetning umumiy ko‘rinishi o‘rganildi. Bu jarayonda mavjud zamonaviy qurilishlar tarixiy me’yorlar, shahar panoramasi va an’anaviy me’moriy elementlar bilan qanchalik uyg‘un yoki zid ekanligi aniqlashtirildi.

Shuningdek, geourbanistik monitoring metodidan foydalanilib, bino balandliklari mutanosibligi, tarixiy obidalar atrofidagi muhofaza zonalarining holati, drenaj tizimlari, yer osti suvlari tarifi va umumiy infratuzilma o‘zgarishlari baholandi. Aynan infratuzilma qatlamlaridagi buzilishlar tarixiy obidalar

ISSN 3030-3907

barqarorligiga katta xavf tug‘dirayotganini atlasli kuzatishlar orqali tasdiqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning muhim qismi kartografik va arxiv manbalarini tahlil qilishdan iborat bo‘ldi. Xususan, XIX–XX asrlarga oid Buxoro shahar arxiv materiallari, tarixiy reja tasvirlari, eski geodezik xaritalar hamda hududiy rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi hujjatlar solishtirildi. Bu ma’lumotlar yordamida shahar tuzilmasining tarixiy dinamikasi va zamonaviy o‘zgarishlar o‘rtasidagi tafovutlar aniqlandi.

Shu bilan birga, taqqoslama tahlil (comparative analysis) usuli qo‘llanilib, Buxoro shahridagi urbanistik jarayonlar Istanbul, Parij, Rim, Samarqand va Xiva kabi dunyoning yetuk tarixiy shaharlari tajribasi bilan solishtirildi. Bu yondashuv UNESCO tavsiyalari va xalqaro konservatsiya standartlari bilan qiyosiy baho berishga imkon berdi. **[1]**

Tadqiqotning amaliy bosqichida maydon kuzatuvlari o‘tkazildi. Tarixiy ko‘chalar, mahalla hududlari, obidalar atrofidagi yangi qurilishlar bilan o‘zaro ta’sir zonalari o‘rganib chiqildi. Mahalliy aholi, soha mutaxassislari, restavratorlar va shaharsozlik ekspertlari bilan suhbatlar o‘tkazilib, ularning kuzatuvlari asosida sifat tahlili shakllantirildi. Ushbu metodlar majmuasi Buxorodagi urbanizatsiya jarayonlarining tarixiy merosga ta’sirini tizimli ravishda baholashga imkon berdi. *(2-rasm)*



2-rasm Buxoro shahrida “Turizm markazi” loyihalaridan namunalar

NATIJALAR. Olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar natijasida Buxoro tarixiy markazida urbanizatsiya jarayonlari bir qator sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘layotgani aniqlandi. Eng avvalo, me’moriy siluetning buzilishi jiddiy muammolardan biri sifatida qayd etildi. Tarixiy hududda an’anaviy tarzda shakllangan 2–3 qavatli siluetning o‘rniga ayrim joylarda 5–7 qavatli binolarning qurilishi arxitektura-prostranstvenny uyg‘unlikni izdan chiqarib, shahar panoramasiga qo‘pol aralashuv sifatida baholandi.

Tadqiqot davomida tarixiy hududlarda funksional bosimning ortib borayotgani ham qayd etildi. Turizmning jadal rivojlanishi natijasida mehmonxonalar, restoranlar, savdo majmualari sonining oshishi mahalla tizimi va an’anaviy turmush tarzini chekinishga majbur qilmoqda. Tarixiy shahar atrof-

ISSN 3030-3907

muhitining tabiiyligi kamayib, madaniy landshaftning izdan chiqishi kuzatilmoqda.

Yana bir muhim natija sifatida drenaj va poydevor tizimlarining buzilishi aniqlandi. Yangi kommunikatsiya tarmoqlarini tortish chog‘ida qadimiy yer osti suv yo‘llarining buzilishi, drenaj tizimlarining ishdan chiqishi va ayrim tarixiy inshootlar poydevor qatlamlarining jarohatlanishi kuzatildi. Bu holat uzoq muddatli nuqtai nazardan tarixiy obidalar barqarorligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. [3]

Shuningdek, transport yuklamasining ortishi ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘ldi. Tor tarixiy ko‘chalarda avtomobil harakati kuchayib, vibratsiya va atmosfera ifloslanishi oshib, piyodalar harakati xavf ostida qolmoqda. Bu holatlar tarixiy hududda turizm sifati va ekologik barqarorlikka salbiy ta’sir etmoqda. Natijalarning yana biri mahalliy aholining tarixiy hududlardan siqib chiqarilishi bilan bog‘liq. Uy-joy narxlarining keskin oshishi, turizm zonasining kengayishi, kundalik hayot uchun qulayliklarning kamayishi aholi migratsiyasini kuchaytirmoqda. Bu jarayon madaniy muhitning yemirilishiga, tarixiy hudud mazmunining susayishiga olib kelmoqda.

MUHOKAMA. Olingan natijalarni xalqaro tajribalar bilan solishtirish shuni ko‘rsatdiki, Buxoroda amalga oshirilayotgan urbanistik jarayonlar ayrim jihatlarda UNESCO tavsiyalaridan chetga chiqmoqda. Xususan, tarixiy hududlarda qurilish balandligi 2–3 qavat bilan cheklanishi kerakligi aytilgan bo‘lsa-da, ayrim zamonaviy loyihalarda yuqori qavatlilik kuzatildi. Bundan tashqari, yangi inshootlarning materiali, massasi, rang yechimlari va fasad kompozitsiyasi ko‘pincha tarixiy arxitektura bilan uyg‘un emas.

Monitoring tizimining sust rivojlanganligi ham muhokama jarayonida alohida ta’kidlandi. Dunyoning ko‘plab tarixiy shaharlari “Heritage Impact Assessment” tizimidan foydalanib, har bir qurilish loyihasining merosga ta’sirini oldindan baholaydi. Buxoroda esa bu tizim to‘liq joriy etilmagan va ko‘plab obyektlarda qurilish boshlanib ketganidan so‘nggina muammolar aniqlanmoqda.

Restavratsiya sohasida ham bir qator muammolar qayd etildi. Xususan, ayrim obyektlarda restavratsiya emas, balki yangilash va qayta qurish ishlari olib borilishi, tarixiy asliyatning yo‘qolishiga olib kelmoqda. Ilmiy restavratsiya metodlariga amal qilinmasligi tarixiy obidalar qiymatini pasaytiruvchi asosiy omillardan biridir. Turizm bosimining ortishi ham muhokamaning muhim qismi bo‘ldi. Katta turist oqimi kundalik shahar infratuzilmasini haddan tashqari yuklab, mahalliy hayot tarzining tabiiyligiga putur yetkazmoqda. Xalqaro amaliyotda bunday sharoitlarda piyodalar hududlarini kengaytirish, tarixiy markazga avtomobil kirishini cheklash, turizm sig‘imini boshqarish kabi choralar samarali ekanligi isbotlangan.

ISSN 3030-3907

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalari Buxoro shahrida tarixiy me'moriy merosni asrash hamda zamonaviy qurilish jarayonlarini tartibga solish o'rtasida barqaror muvozanat yaratish zarurligini ko'rsatadi. Shahar tarixiy markazida amalga oshirilayotgan qurilish faoliyati aniq me'yoriy reglamentlar bilan boshqarilishi lozim bo'lib, bino balandliklari ikki-uch qavatdan oshmasligi, yangi inshootlarning fasad kompozitsiyasi, materiali va rang yechimlari esa mavjud tarixiy muhit bilan uyg'un bo'lishi talab etiladi. Bu, eng avvalo, tarixiy siluetning saqlanib qolishi va shahar panoramasining izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Shaharni boshqarish tizimida alohida "Buxoro Tarixiy Shahar Monitoring Markazi"ni tashkil etish ham dolzarb masalalardan biridir. Bunday markaz tarixiy obidalar poydevori, drenaj tizimlari, yer osti suvlari harakati, vibratsion yuklama va namlik darajasini muntazam kuzatib borishi, zamonaviy GIS texnologiyalari orqali obidalar holatini doimiy nazorat ostida ushlab turishi tarixiy muhit barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. [5]

Shuningdek, restavratsiya amaliyotida xalqaro ilmiy tamoyillarni to'liq joriy etish zarur. Bu jarayonda asliyatni saqlash, materiallarning original nusxalarini tiklash, arxeologik qatlamlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish va qayta qurishdan ko'ra ilmiy restavratsiya metodikasiga qat'iy amal qilish ustuvor vazifalardandir. Yangi kommunikatsiya tarmoqlarining tortilishi vaqtida drenaj va yer osti qatlamlariga zarar yetkazilishi ko'plab tarixiy obidalarga salbiy ta'sir ko'rsatgani bois, infratuzilma loyihalarini rejalashtirishda ham maxsus ilmiy ekspertizadan o'tkazish shart.

Tarixiy shahar muhitining eng muhim komponentlaridan biri mahalliy aholining ushbu hududda yashash motivatsiyasidir. Uy-joy narxlarining keskin oshishi va turistik infratuzilmaning kengayishi natijasida mahalla aholisining tarixiy hududni tark etishi madaniy landshaftning yemirilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, aholi uchun subsidiya va grant tizimlarini joriy etish, soliq imtiyozlari yaratish, tarixiy uylarni ta'mirlashda moliyaviy yordam ko'rsatish kabi mexanizmlarni tatbiq etish zarur bo'ladi. Bu, o'z navbatida, tarixiy hududni "tirik shahar makoni" sifatida saqlab qolishga yordam beradi. **[2]**

Zamonaviy qurilishlarning tarixiy muhitga ta'sirini baholash maqsadida xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan "Merosga ta'sir bahosi" tizimini joriy etish ham eng dolzarb ehtiyojlardan biridir. Har bir yangi loyiha qurilish balandligi, vizual ta'sir, drenaj tizimlariga ehtimoliy zarar, arxeologik qatlamlarga bosim hamda umumiy me'moriy muhit bilan uyg'unlik darajasi bo'yicha ekspertiza xulosasini olishi kerak. Turizm oqimining ortib borishi sharoitida Buxoroda turizmni boshqarishning barqaror modeli ishlab chiqilishi lozim. Bu jarayonda mavsumiy turist sig'imini tartibga solish, elektron chiptalar va kvotalar tizimidan foydalanish,

ISSN 3030-3907

tarixiy obidalar atrofida yuklama zonalarini belgilash kabi choralar samarali natija beradi.

Zamonaviy infratuzilmaning yer ustida joylashishi ko‘plab tarixiy ko‘rinishlarni buzayotgani bois, elektr tarmoqlari, aloqa kabellari, suv va kanalizatsiya tizimlarini imkon qadar yer osti yo‘lagiga ko‘chirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, Buxoro shaharsozlik hujjatlarini to‘liq raqamlashtirish, muhofaza zonalari, arxeologik qatlamlar, qurilish cheklovlari va reja hujjatlarini yagona GIS platformasiga joylashtirish shaharni ilmiy asosda boshqarish imkonini sezilarli darajada kengaytiradi. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish Buxoro shahrining tarixiy qiyofasini saqlash bilan birga, zamonaviy rivojlanish ehtiyojlarini ham mutanosib ravishda ta’minlashga xizmat qiladi. **[4]**

XULOSA. Tadqiqot natijalari Buxoro shahrida tarixiy me’moriy merosni saqlash jarayoni zamonaviy qurilish faoliyatining jadallashuvi bilan murakkab muvozanat holatiga kirganini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda turizm va infratuzilmaning kengayishi, ko‘p qavatli inshootlarning barpo etilishi hamda transport yuklamasining ortishi tarixiy siluet va madaniy landshaftga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ba’zi hududlarda drenaj va poydevor tizimlarining buzilishi, restavratsiya jarayonlarida ilmiy tamoyillarga rioya qilinmasligi va mahalliy aholining tarixiy markazdan chekinishi mavjud muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda.

Xalqaro tajribalar bilan solishtirish Buxoro tarixiy hududida konservatsiya talablari to‘liq amalga oshmayotganini ko‘rsatadi. Shu bois shahar rivojlanishini tarixiy muhit bilan uyg‘unlashtirish, qurilish faoliyatini qat’iy me’yorlar asosida boshqarish va meros ob’ektlarini muntazam monitoring qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, Buxoro tarixiy qiyofasini asrash shaharni barqaror rivojlantirishning muhim sharti sanaladi va bu yo‘lda ilmiy asoslangan strategik yondashuvlar zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. “World Heritage in Urban Context”, Paris, 2018.
2. Raximov B. “Markaziy Osiyo tarixiy shaharlarida me’moriy muvozanat”, Toshkent, 2020.
3. Jo‘rabekov A. “Buxoro shaharsozlik tarixining bosqichlari”, 2017.
4. O‘zbekiston “Merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2009.
6. Buxoro shahar arxiv materiallari, 19–20 asrlar.

ISSN 3030-3907